



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Dilshod Komolov, Asilbek Zulfiqorov YANGI O‘ZBEKISTONDA ADVOKATURA INSTITUTINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	5
2. Faxriddin Yormatov, Nurullo Tursunov JAMIYAT HAYOTIDA NURONIYLARNING TUTGAN O‘RNI VA YANGI O‘ZBEKISTONDA ULARNI HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASHNING AMALIY IFODASI.....	11
3. Nodira Toliboyeva O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNI TA‘LIM TIZIMIGA JALB ETISH: TARIXIY TAJRIBA VA MUAMMOLAR.....	18
4. Гулчехра Дадамирзаева СОВЕТЛАРНИНГ КОСИБ-ХУНАРМАНДЧИЛИК ИШЛАБ ЧИҚАРИШИ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ СИЁСАТИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ.....	23
5. Akmal Mengliboyev QIZIL ARMIYA BOSQINIGA QARSHI SURXON VOHASIDA KURASHNING BOSHLANISHI.....	32
6. Ulug‘bek Mirzaliyev, Farhod Umurzoqov SIRDARYO VA JIZZAX VILOYATLARIDAGI URBANIZASIYA JARAYONLARI.....	39
7. Абдисаттор Қосимов ЧОРВАЧИЛИКДА СУРХОН-ШЕРОБОД ВОҲАСИ АСРИЙ ХЎЖАЛИК АНЪАНАЛАРИ.....	45
8. Sardorbek Rahimberdiyev TRANSMILLIY MIGRATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEK MIGRANTLARINING MADANIY IDENTIFIKATSIYASI VA KUNDALIK HAYOT STRATEGIYALARI (KOREYA RESPUBLIKASI MISOLIDA).....	49
9. Shavkat Shapiyev FARHOD GIDRO ELEKTR STANSIYASI – O‘ZBEKISTONNING ENERGETIKA USTUNI.....	57
10. Diyora Chorshanbiyeva 2016-YILDAN KEYIN O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI VA YOSHLAR MASALASI.....	65
11. Sitora Nosirova DOSTONLARDA O‘ZBEK OILASINING IJTIMOIIY HAYOTDAGI KO‘RINISHLARI.....	72
12. Lutfillo Mamasaidov O‘ZBEKISTONDA SAVODSIZLIKNING TUGATILISHI VA YANGI TA‘LIM TIZIMINI TASHKIL ETILISHI TARIXIDAN.....	76



Lutfillo Payzullo o'g'li Mamasaidov,
University of Business and Science
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti,
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
Rashid_4062303@mail.ru
ORCID: 0009-0004-3573-6787

O'ZBEKISTONDA SAVODSIZLIKNING TUGATILISHI VA YANGI TA'LIM TIZIMINI TASHKIL ETILISHI TARIXIDAN

For citation: Lutfillo P. Mamasaidov. FROM THE HISTORY OF THE ELIMINATION OF ILLITERACY AND THE ESTABLISHMENT OF A NEW EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18942430>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XX asrning boshlarida O'zbekiston hududlarida "Rus-tuzem" va "Yangi usul" maktablarining faoliyati tugatilishi, 1918-yilda boshlab O'zbekiston hududlarida chalasavod va savodsizlik kurslarining tashkil etilishi va bu borada amalga oshirilgan ishlar, Kasaba uyushmalari va "Qo'shchi" ittifoqi tashkilotlarining chalasavod va savodsizlik kurslarini tashkil etishdagi ahamiyati hamda respublika hududlarida kurslar tashkil etilishining holati va maktablarda kadrlar yetishmovchiligi shuningdek, SSSRda "Boshlabg'ich ta'lim" tizimini tashkil etilishi borasida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: "Rus-tuzem", "Yangi usul", "Boshlabg'ich ta'lim", chalasavod, savodsizlik, Kasaba uyushmalari, "Qo'shchi" ittifoqi, "Qizil O'zbekiston", maktab, madrasa.

Mamasaidov Lutfillo Payzullo ugli,
University of Business and Science
доцент кафедры общественных наук, PhD
Rashid_4062303@mail.ru

ИЗ ИСТОРИИ ЛИКВИДАЦИИ НЕГРАМОТНОСТИ И СОЗДАНИЯ НОВОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются вопросы прекращения деятельности школ типа «русско-туземных» и «новометодных» («усул-и жадид») на территории Узбекистана в начале XX века, организация с 1918 года курсов по ликвидации малограмотности и неграмотности, а также проведённые в этом направлении мероприятия.

Особое внимание уделяется роли профсоюзов и организации «Кошчи» в создании курсов по обучению малограмотных и неграмотных слоёв населения, состоянию их функционирования в регионах республики, а также проблеме нехватки педагогических

кадров в школах. Кроме того, в статье приводятся сведения о формировании системы «начального образования» в СССР и её внедрении на территории Узбекистана.

Ключевые слова: “Рус-тузем”, “Новый метод”, “Начальное образование”, полуграмотность, неграмотность, Профсоюзы, Союз “Кошчи”, “Красный Узбекистан” школа, медресе.

Lutfillo P. Mamasaidov,
University of Business and Science
Associate Professor of the Department of Social Sciences,
Doctor of Philosophy in Historical Sciences, PhD
Rashid_4062303@mail.ru

FROM THE HISTORY OF THE ELIMINATION OF ILLITERACY AND THE ESTABLISHMENT OF A NEW EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article covers the termination of the activities of the “Russian-native” and “New Method” schools in the territory of Uzbekistan at the beginning of the 20th century, the organization of literacy and illiteracy elimination courses starting from 1918, and the work carried out in this regard.

Special attention is given to the role of trade unions and the “Qo‘shchi” organization in establishing courses for the education of semi-literate and illiterate population groups, the state of their functioning in the regions of the republic, as well as the problem of teacher shortages in schools. In addition, the article provides information on the formation of the “primary education” system in the USSR and its implementation in the territory of Uzbekistan.

Index Terms: “Rus-tuzem”, “New Method”, “Primary Education”, semi-literacy, illiteracy, Trade Unions, “Koshchi”, Union, “Red Uzbekistan” school, madrasah.

Dolzarbli:

XX asrning boshlariga kelganda O‘zbekiston hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning yomonligi ta‘lim olish muassasalari aholi soniga mos ravishda oshib bormaganligi mazkur davlarda diniy va dunyoviy fanlarni o‘qitilishida “Rus-tuzem” va “Yangi usul” maktablari o‘rtasidagi sog‘lom raqobat yuzaga kelgan bo‘lsada, inqilobdan keyin markazning ko‘rsatmasiga asosan mahalliy maktablarga bo‘lgan munosabatning yomonlashishi natijasida vaqt o‘tishi bilan “Yangi usul” maktablarini ochilishi va faoliyati asta-sekin tugatila boshlandi. Buning o‘rnida esa hukumat yetakchisi Lenin tashabbusiga asosan, 1919-yil 26-dekabrda “RSFSR aholisi o‘rtasida savodsizlikni tugatish haqida”gi dekreti e‘lon qilinganidan so‘ng savodsizlikni tugatish harakati keng avj oldi. Dekretida ko‘rsatilishicha, aholi mamlakatning siyosiy hayotida ongli ravishda ishtirok etish uchun Rossiya Federatsiyasi, shuningdek, TASSRning o‘qish va yozishni bilmaydigan 8 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan fuqarolari o‘z xohishlariga ko‘ra ona tili yoki rus tilida savod chiqarishlari lozim edi[1.50-51].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review):

XX asr o‘rtalarida O‘zbekistonda maorif tizimining holati bo‘yicha bugungi kunga qadar ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Bulardan: Qodirov E. K. O‘zbekiston umumta‘lim maktablarining rivojlanish tarixidan deb nomlangan kitobida aynan urush yillarida maktab ta‘limi sohasida amalga oshirilgan ko‘plab islohotlar haqida so‘zlansada bu kitob sovet davri 1979-yilda chop etilgan bo‘lib, unda respublikada savodsizlik va chalasavod kurslar faoliyatiga oid ma‘lumotlar keltiriladi.

Прокофьева М. А. и др, “Народное образование в СССР” nomli 1967-yilda chop etilgan kitobida ham sovet davri ta‘lim yuqori darajada maqtablab ushbu kitobda ham maktab sohasida sovetlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan ko‘plab masalalarga atroflicha to‘xtalmagan.

Ro'ziqulov Sh. M. "O'zbekiston SSR ta'lim tizimidagi o'zgarishlar (1946-1991-yillar)" Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida ham XX asr boshlarida kommunistik mafkuraning maktab ta'limi sohasiga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa-da, ammo maktablarda savodsizlik masalalari ko'p jihatlar ochib berilmagan.

Bundan tashqari mazkur mavzuni yoritishda "Sovet maktabi" jurnali va "O'qituvchilar" gazetasi ham muhim ahamiyatga egadir. Ya'ni undagi maqolalardan mavzu doirasida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, O'zbekiston milliy arxivining R-94, fondida maorif sohasiga bevosita a'loqadordir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology):

Tadqiqot mavzusini yoritishda O'zbekiston SSRda maorif sohasida olib borilgan islohotlar kommunistik mafkura ta'sirida yuz berganligi va maktab ta'limidagi boshqaruv, ta'lim berish jarayonlari hamda darsliklarda milliy ananalar va qadriyatlar masalalarini yoritishda qiyosiy, tanqidiy va xronologik, pragmatik usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results):

1920-yil oxirlarida Turkiston ASSRda qariyb 1000 ta savodsizlikni tugatish maktab va kurslari faoliyat ko'rsata boshladi. 1920-yilda bu kabi maktab va kurslarni bitirganlar soni 70 ming kishiga yetdi. Ulardan 70 foizini mahalliy millat vakillari tashkil qildi. 1921-yilda savodsizlikni tugatish maktablari 50 mingdan ortiq katta yoshdagi aholi vakillarini qamrab olgan bo'lib, ularning 70 foizi mahalliy millat vakillari bo'lgan[2.16].

Savodsizlikni tugatish quyidagi maqsadlarda amalga oshirilgan: 1) o'qishni o'rgatish; 2) yozishga o'rgatish; 3) hisoblashga o'rgatish. Yevropa tilidagi savod maktablarida o'qish muddati 2-3 oy, mahalliy tilda 3-6 oy. 1923-yildan keyin savodsizlikni tugatish kurslari 6 oylik bo'ldi, siyosiy savodxonlikni o'rganish, Turkiston haqida iqtisodiy bilimlar qo'shildi.

Savodsizlikni tugatish kurslari SSSR tomonidan Markaziy Osiyo davrlari o'rtasida milliy hududiy chegaralanish masalalarini to'laqonli yakuniga yetguniga qadar sust holatda bo'lgan bo'lsa 1924-yilga kelib Markaziy Osiyo davlatlari orasida savodsizlikni tugatishga qaratilgan ko'plab aksiyalar o'tkazish ishlari ancha kengaydi.

Masalan, tadqiqotchi Rakhmonjon Ahmedovning O'zbekiston SSSRda savodsizlikni tugatilishiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotida O'zbekiston hududlarida 1925-1926 yillarda O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti (XKS) huzuridagi Savodsizlikni tugatish bo'yicha favqulodda komissiyasi asosiy e'tiborni Kasaba uyushmalari va "Qo'shchi" ittifoqi a'zolari o'rtasida savodsizlikni tugatishga qaratgan. Buning uchun Favqulodda komissiya tomonidan 400 ta yangi maktab tashkil etish ko'zda tutilganligi, ulardan 130 tasi Toshkent viloyatida, 100 tasi Farg'ona viloyatida, 50 tasi Zarafshon viloyatida, 75 tasi Samarqand viloyatida, 20 tasi Xorazmda, 10 tasi Qashqadaryoda, 10 tasi Surxondaryoda, 5 tasi Konimex rayonida ochilishi mo'ljallangan[3.113].

1923-yilda Samarqand viloyatida "Qo'shchi" ittifoqi a'zolari o'rtasida savodsizlikni tugatishga katta e'tibor qaratilgan ya'ni, 21801 nafar a'zoning 19930 nafari savodsiz hisoblangan. Ularni savodli qilish maqsadida dastlab o'z mag'lablari hisobidan 17 ta maktab ochishgan. 1924-yil boshlariga kelib bunday maktablar soni 50 taga yetgan bo'lsa, 1924-yil fevral oyida o'tkazilgan viloyat "Qo'shchi" ittifoqi ikkinchi qurultoyida barcha qishloq va ovullarda savodsizlikni tugatish maktablari ochilgan. Shuningdek ushbu maktablarning faoliyat yuritishi va kitoblar bilan ta'minlanishi "Qo'shchi" uyushmalarning yordami asosida olib borilgan. "Qo'shchi" uyushmalar tomonidan har bir maktabga 2.5 desyatinadan bug'doy ekish vazifasi yuklatilgan[4.60.61]. Namanganda savodsizlikni tugatish kurslari xotin-qizlar misolida oladigan bo'lsak, 1926-1930-yillar orasida jami 122 kechki kurs, shu jumladan, xotin-qizlar uchun 28 ta kurs ochiladi. Xotin-qizlardan 357 nafar kishi savodsizlik kursini, 138 nafar chalasavodlar kurslarini tamomlaganlar[5.38].

Mazkur davrda umum SSSRda 8 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan aholining savodxonlik foizi 1926-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, RSFSRda 56,6 ga, 1939-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra esa - 87,4, Turkmaniston, O'zbekiston va O'rta Osiyoning boshqa respublikalarida u 1926-yildagi 10 - 12 dan 1939-yilda 67 - 70 gacha ko'tarildi[6.373].

1924-1928-yillarda O'zbekiston SSRda Maorif xalq komissarligining byudjet mablag'lari hisobidan 1924-yilda 11,4 mln rublni yoki respublika umumiy byudjetining 24 foiz mablag'lari maktab ta'limini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, 1924-1928-yillarda O'zbekistonda 271 ta maktab binosi qurilib foydalanishga topshirilgan bo'lib, unda 7500 nafar o'quvchi bilim olgan. Maorif xarajatlari 1928-yilda 28,5 mln rublni tashkil etib, 6 mingga yaqin turli madaniy-ma'rifiy muassasalar, 10 mingdan ortiq savodsizlik va chalasavodlikni tugatish maktablari faoliyat ko'rsatgan[7.6]. Maktab ta'limi sohasidagi ehtiyojlariga 1927-yilga kelib O'zbekiston davlat byudjetining 9.3 foizni ajratilgan bo'lsa, ayni vaqtda RSFSRda bu ko'rsatkich 14.4 foizni, Ukrainada 12.8 foizni, Turkmanistonda esa 11.1 foizni tashkil qilgan[8.4].

1924-1928-yillar mobaynida respublikada savodsizlikni tugatish maktablari soni 1005 tadan 1712 taga ko'paydi. Maktablardagi o'quvchilar soni ham 33 835 dan 51360 nafarga yetdi. Savodsizlikni tugatish maqsadlari uchun mablag' ajratish respublikada yil sayin oshib borib, 1925-1926-o'quv yilida 228145 rubl, 1927-1928-o'quv yilida esa 438 156 rubl mablag' ajratilgan. Lekin ajratilayotgan mablag'larning oshib borishi yetarli bo'lmay, ular savodsizlikni tugatish maktablarini ehtiyoj darajasida ko'paytirishga yetmas edi[9.18].

Shunday bo'lsada 1925-1926-yillarda O'zbekiston SSRda 1415 ta savod chiqarish maktablari tashkil etilgan bo'lsa, bularning 256 tasi "Qo'shchi" uyushmasi, 195 tasi kasaba uyushmalari, 100 dan ortig'i esa boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan. Savodsizlikni tugatish kurslari Namangan hududlarida 1931-yil shahar Sho'ro Prezidiumi tomonidan 27-sonli majburiy qaror asosida mahallalardagi savodsiz va chalasavodlarning ro'yhati olingan. 1931-1932-yillarda 10465 nafar kishi savodsizlikni tugatish kursiga o'qishga tortilgan. Shulardan 3096 nafari chalasavodlar kursiga ko'chgan. 3578 kishi chalasavodlar kursiga qabul qilinib, shundan kursni 1886 nafari tamomlagan[10.62].

Xotin-qizlar o'rtasida savodsizlikni tugatishga alohida e'tibor berilgan. 1937-yil 25-noyabrda shahar xotin-qizlar klubida Sharofat Bo'latxonova raisligida, Dadaboeva kotibligida yig'ilish bo'lib, 7 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan qizlar va ayollarni savodxon qilish to'g'risida qaror qabul qilingan[11.39]. 1932-yilda savodsiz va chalasavodlar kurslari uchun uch oylik o'qituvchi tayyorlash kursi ochilgan. 1936-yil 25-martda savodsizlikni tugatish bo'yicha ochilgan 65 guruhni 2348 kishi o'qib tugatgan. Bularndan 999 kishi ayollardir. Chalasavodlar uchun 17 guruh ochilgan va unda 2023 kishi o'qigan. Savodsizlik va chalasavodlikni tugatish tadbirlari 1940-yilga qadar davom ettirilgan[12.16-17].

1930-yilda umumittifoqdagi maktablarga qabul qilingan bolalar soni yiliga 3-3,5 mlndan ortib brogan bo'lsa, 1932-yilda 7,6 mln katta yoshlilar savodxonlik darslarida qatnashdi va 6,5 million kishi yarim savodxonlik maktablariga borgan. Savodxonlik SSSRda 1930-yildagi 67 foizdan 1939-yilda 90 foizga ko'tarilgan. Keyingi yillarda o'qish va yozishni biladigan odamlar soni barqaror ravishda toki savodsizlik to'la tugatilguniga qadar o'rtgan[13.8].

O'zbekiston SSRda esa savodxonlik darajasi umumittifoqqa nisbatan pastroq darajada bo'lgan. Masalan, 1939-yilgi aholini ro'yxatga olish natijalari bo'yicha, O'zbekiston SSRda 8 yoshdan 60 va undan yuqori yoshdagilar jami – 5 million 81 ming 891 nafar bo'lib, ulardan 3 million 445 ming 522 nafari (67,8 foiz savodlilar, 1 million 636 ming 369 nafari (32,2 foiz) savodsizlar bo'lgan.

Hududlar kesimida o'rganilganda Toshkent viloyatida – 75,5 foiz, Samarqand viloyatida – 69,4 foiz, Buxoro viloyatida – 67,5 foiz, Farg'ona viloyatida – 65,5 foiz, Xorazm viloyatida – 64,4 foiz, Qoraqalpog'iston ASSRda – 57,3 foizdan iborat bo'lgan. O'zbekiston SSRda ham katta yoshdagilar o'rtasidagi savodxonlikning asosiy salmog'i erkaklar hissasiga to'g'ri keldi. Xususan, katta yoshdagi erkaklar o'rtasidagi savodxonlik darajasi 77,5 foiz, ayollar o'rtasidagi esa 65,7 foizni tashkil etdi. Respublika bo'yicha shahar aholisining savodxonlik darajasi 79,6 foiz, qishloq aholisining savodxonligi 64,1 foiz bo'lgan[14.19].

Bundan ko'rinadiki, O'zbekiston SSSRning ko'plab davlatlariga nisbatan savodxonlik darajasi pastroq hisoblangan. Bunga sabab, O'zbekiston yoki Markaziy Osiyo hududlarida Sovet hokimiyatining siyosati natijasida aholining katta qismi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishga iqtisoslashtirilgan bo'lib, 1917-yil fevral inqilobidan so'ng bu hududlarda aholini

savodhonlik darajasini oshirish bahonasida dehqonchilik hamda ishlab chiqarish va boshqaruv sohalarida boshlang'ish mutaxassislarini tayyorlash, ushbu harakatlar orqali sovet mafkurasini xalq ichida keng yoyish, ta'lim sohasi orqali mehnatkashlar sinfini parpo etish masalasiga katta e'tibor qaratilgan.

Mazkur davrning o'ziga xos muammolarida yana biri shuki yuqorida keltirilgan XX asrning boshlarida o'lamizda "Eski usul", "Yangi usul, va "Rus tuzem maktablari" faoliyat olib borayotgan va bular o'rtasida kurash rossa avj olgan davr edi.

1925-yilda eski usul maktablari 1329 tani, sovet maktablari esa 908 tani tashkil etgan. Bu esa o'z navbatida bolsheviklar hukumatining xavotiriga sabab bo'ldi. O'sha davrda qaror topib kuchga kirgan g'oyaviy tazyiqlar endilikda milliy an'anaviy eski usul maktablarni yo'q qilib yuborishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi va bunga erishdi ham: endilikda aholi sovet maktablariga majburan jalb etila boshlangan[15.39].

1924-yildan boshlab xalq maorifi komissariyati tashkiloti o'lkadagi yangi usul maktablari va madrasalar faoliyatini to'xtatishga oid ishlarni amalga oshirishni boshlab, 1925-yilda jumhuriyatdagi jami maktab, madrasa, qorixonalar zo'rlik bilan yopildi. Bu esa o'lkadagi aholi orasida norozilikka sabab bo'ldi.

Lekin "Qizil O'zbekiston" ro'znomasining 1926-yil 16-dekabrdagi sonida Toshkent eski shahar ijroiya qo'mitasining qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorga binoan 1926-yil 1-yanvardan xalq maorifi bo'limi roziligisiz eski maktablarga o'quvchilarni to'plash taqiqlanadi. Qarorni buzgan shaxslarga 300 so'm jarima solinadi yoki bir yillik majburiy mehnatga jalb etiladi.

Sovet hokimiyati tomonidan o'lkada xalq ta'limi sohasini yaxshilashga qaratilgan ishlardan yana biri "savodsizlik"ni tugatish edi.

1931-yil shahar Sho'ro Prezidiumi tomonidan 27-sonli majburiy qaror asosida mahallalardagi savodsiz va chalasavodlarning ro'yhati olingan. 1931-1932- yillarda 10465 nafar kishi savodsizlikni tugatish kursiga o'qishga tortilgan. Shulardan 3096 nafari chalasavodlar kursiga ko'chgan. 3578 kishi chalasavodlar kursiga qabul qilinib, shundan kursni 1886 nafari tamomlagan. Savodsizlik va chalasavodlikni tugatish tadbirlari 1940-yilga qadar davom ettirilgan[16.7].

Malakali kadrlarning yetishmasligi faqatgina maktab ta'limini pasayishiga emas aholi orasidagi savodsizlik darajasini tugatilmasligiga ham sabab bo'lgan. Masalan, 1956-yil dekabr holatiga ko'ra Surxondaryo viloyatida savodsizlar 5154 nafarni, chalasavodlilar esa 4495 nafarni tashkil etgan. Bu yilda Savodsizlarni tayyorlash uchun 2476 nafar kishini qamrab olingan bo'lib, 107 guruh va chalasavodlilarni tayyorlash uchun 2467 nafar kishini qamrab olgan 97 guruh tashkil etildi[17.13].

Samarqand viloyatida 1956-1957-o'quv yilida umumiy 22462 nafar savodsizlar bo'lsa, ularning 11243 savodsiz va 11213 nafar chalasavod hisoblangan. 22462 nafar savodsiz va chalasavodlarda 4880 nafarini savodsizlikni tugatish kurslariga jalb etilib, ular uchun 651 ming rubl mablag' ajratilgan, qolgan 17582 nafar armiyaga safarbar etilgan[18.4].

Shuningdek, 1958-yil 1-avgust holatiga ko'ra Qoraqalpoqg'iston ASSR va O'zbekiston SSRda savodsizlar 104266 nafarni tashkil etgan bo'lsa, ularda shu tashkil etilgan kurslarga 99260 nafari jalb qilinib, 3173 ta gurppalar tashkil etilgan. Bu kurslarni 71116 nafari tamomlagan. Hamda 8868 nafar yakka kurslarni tamomlagan bo'lib, ushbu kurslarda ayollar 67101 nafarni tashkil etgan.

Chalasavodsizlar esa bu davrda 49598 nafarni tashkil etgan bo'lib, ularning 63932 nafar kurslarga tortilib 2385 ta guruppa tuzilgan. Kurslarni tugatganlar 34647 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 7484 nafar yakka tartibda ta'lim olgan. Chalasavodsizlar ichida ayollar 46857 nafarni tashkil etgan. Bularga 8430 nafar o'qituvchi dars bergan[19.21].

Aslida 1964-yilda O'zbekiston SSR xalq maorifi vazirining keltirishicha savodsizlik va chalasavodsizlik masalasi 1939-yilda to'laqonli tugatilganligi haqida oldingi paragrfd ma'lumotlarni ketirgan bo'lsak. Afsuski bu masala O'zbekiston 1913-yilda aholinig 2 foizi savodli deyilsa, 1926-yilda 10.6 foizga, 1928-yilda 18.2 foizga, 1930-yilda 27.3 foizga, 1932-yilda 52 foizga, 1934-yilda 61 foizga, 1939-yilga kelib aholining 95 foizi savodli bo'lganligi haqida ma'lumotlar ketiriladi[20.4].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations):

XX asrning boshlarida O‘zbekiston SSSRda amalga oshirilgan madaniy-ma‘rifiy siyosat zahirida respublika maktablarida savodsizlik va chalasodlilik kurslari tashkil etilishi, ijtimoiy hayotida tub burilish yasagan murakkab va ziddiyatli jarayon bo‘lgan.

Savodsizlikni tugatish kampaniyasi qisqa tarixiy muddat ichida keng ommani o‘qish-yozishga jalb etish, boshlang‘ich ta‘limni ommalashtirish va yangi maktab tarmog‘ini rivojlantirish orqali muhim natijalarga erishilgan. 1930-yillarga kelib boshlang‘ich ta‘limning majburiyligi e‘lon qilinib, savodxonlik darajasi keyingi yillarda keskin oshgan. Shu bilan birga, yangi ta‘lim tizimi mafkuraviy asosda barpo etilgan, uning mazmuni kommunistik g‘oyalarni singdirishga qaratilgan bo‘lib, ta‘limdagi an‘naviylik va qadriyatlarini yemirilishiga sabab bo‘lgan. Umuman olganda, savodsizlikning tugatilishi va yangi ta‘lim tizimining tashkil etilishi O‘zbekiston tarixida modernizatsiya jarayonining muhim bosqichi bo‘lib, u ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning keyingi rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Чориев А. Х. Мустабит шўролар тузуми шароитида Ўзбекистон халқ таълими ва ўқитувчи кадрлар тайёолаш: миллий анъанавий ва шўро таълим тизимлари ўртасидаги зиддиятлари (20-30-йиллар). Тарих фан. док...дис.–Т., 1998. –Б. 50-51.
2. Ahmedov R.R. O‘zbekistonda sovet hokimiyatining savodsizlikni tugatish siyosati (XX asrning 20-30-yillari). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doctor dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg‘ona. 2024. –B. 16.
3. Ахмедов Р.Р. Ўзбекистонда саводсизликни тугатиш тадбирларининг ўтказилиши (1924–1928 йиллар мисолида) / Жамият ва инновациялар. 2023. –B. 113.
4. Абрамов М.М. Политико-просветительная деятельность союза “Кошчи” В Самаркандкой области (1917-1927 годы) / Ўзбекистонда ижтимоий фанлар / Общественны науки в Узбекистане, №7. 1961. –С. 60-61.
5. Дадабоев Р. Наманган шаҳар маорифи тарихидан. Тарих тилга кирганда...(мақолалар тўплами) Даврий тўплам № 2.–Наманган., 2008. –Б. 38.
6. Константинов Н.А, Медынский Е.Н, Шабаева М.Ф, “История педагогики”. “Просвещени””. –Москва. 1982. –С. 373.
7. Прокофьева М. А. и др, “Народное образование в СССР”. Издательство “Просвещение”. –М., 1967. –С. 6.
8. Sagdiyeva X. X. O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasida boshlang‘ich ta‘lim tarixidan (1925-1940 yillar) / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2024. –B. 4.
9. Ahmedov R.R. O‘zbekistonda sovet hokimiyatining savodsizlikni tugatish siyosati (XX asrning 20-30-yillari). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktor dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg‘ona. 2024. –B. 18.
10. Абрамов М.М. Политико-просветительная деятельность союза “Кошчи” В Самаркандкой области (1917-1927 годы) / Ўзбекистонда ижтимоий фанлар / Общественны науки в Узбекистане, №7. 1961. –С. 62.
11. Дадабоев Р. Наманган шаҳар маорифи тарихидан. Тарих тилга кирганда...(мақолалар тўплами) Даврий тўплам № 2.–Наманган, 2008. –Б. 39.
12. Ражапов В. Т. Наманган шаҳар халқ таълими тизимининг ривожланиши тарихи. –Наманган, “Ноширлик ёғдуси”. 2011. –Б. 16-17.
13. Prokofyev M. Education in the USSR. –Moscow. 1969. –P. 8.
14. Ahmedov R.R. O‘zbekistonda sovet hokimiyatining savodsizlikni tugatish siyosati (XX asrning 20-30-yillari). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktor dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg‘ona. 2024. –B. 19.
15. Мустафаева Н. Туркистон маорифи XX асрнинг 20-йиллари муаллифлари назарида // O‘zbekiston tarixi, №1. 2004. –Б. 39.

16. Алимов И. Эски мактаб ислоҳоти ташаббускори // Халқ таълим.–1993.– №10-12.
- Б. 7.
17. О‘з МА. R-94 – jamg‘arma, 5-ro‘ухат, 6640-ish, 13-varaq.
 18. О‘з МА. R-94 – jamg‘arma, 5- ro‘ухат, 7046-ish, 4-varaq.
 19. О‘з МА. R-94 – jamg‘arma, 5- ro‘ухат, 7175-ish, 21-varaq.
 20. Қодиров Э. Халқ маорифи соҳасидаги улкан ғалабалар // Совет мактаби, 1964.
- № 4. –Б. 4.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000